

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025
oktyabr**



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI
– Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn
konferensiya materiallari to'plami**

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, 15-oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIYILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdukarimovna	



O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI

Tangrieva Farida Abdulkarimovna

Toshkent shahar Yangiyo'lov tumani

G'aznachilik xizmati bo'limi

“Moliyaviy majburiyatlar ijrosi va moliyaviy resurslarni boshqarish”

guruhi bosh mutaxassisi.

Email: ftangrieva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda O'zbekistonda davlat budjeti ijrosini raqamlashtirish jarayonlarining fiskal intizom va shaffoflikka ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar joriy etilishi orqali davlat moliyasini boshqarish tizimida samaradorlik, hisobdorlik va ochiqlik darajasi oshayotganligi ilmiy asoslab berilgan. Xususan, Avtomatlashtirilgan moliyaviy boshqaruv axborot tizimlari (FMIS), “Fuqarolar budjeti” amaliyoti hamda “Open Budget” portali faoliyati budjet intizomini mustahkamlash va korrupsiya xavfini kamaytirish vositasi sifatida baholangan. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar (IMF, Jahon banki, OECD) tajribasi hamda O'zbekiston davlat moliyaviy siyosati islohotlari o'zaro qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamlashtirish fiskal boshqaruvda ochiqlik va ishonchlilikni ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, hamda davlat xarajatlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Davlat budjeti, raqamlashtirish, fiskal intizom, shaffoflik, moliyaviy boshqaruv, ochiq ma'lumotlar, fuqarolar budjeti, FMIS, audit, korrupsiya xavfi, hisobdorlik, iqtisodiy barqarorlik, xalqaro tajriba, Jahon banki, IMF, O'zbekiston, elektron hukumat, budjet nazorati.

Abstract. This research paper provides an in-depth analysis of the impact of budget execution digitalization on fiscal discipline and transparency in Uzbekistan. The study scientifically substantiates that the implementation of digital technologies significantly improves efficiency, accountability, and transparency in the public financial management system. In particular, the operation of the Financial Management Information System (FMIS), the “Citizens' Budget” initiative, and the “Open Budget” portal are evaluated as key instruments for strengthening budgetary discipline and reducing corruption risks. The comparative analysis includes international best practices from institutions such as the IMF, World Bank, and OECD, alongside Uzbekistan's ongoing public financial management reforms. The findings demonstrate that digitalization serves as a crucial driver for ensuring transparency, public trust, and citizen participation, as well as enhancing the efficiency of government expenditures.

Keywords: State budget, digitalization, fiscal discipline, transparency, public financial management, open data, citizens' budget, FMIS, audit, corruption risks, accountability, economic stability, international experience, World Bank, IMF, Uzbekistan, e-government, budget control.

Аннотация. В данной научной работе проведён углублённый анализ влияния цифровизации исполнения государственного бюджета Узбекистана на фискальную дисциплину и прозрачность. В исследовании доказано, что внедрение цифровых технологий способствует повышению эффективности, подотчётности и открытости системы управления государственными финансами. В частности, деятельность автоматизированной финансовой информационной системы (FMIS), инициатива «Бюджет для граждан» и портал «Open Budget» рассматриваются как инструменты укрепления бюджетной дисциплины и снижения коррупционных рисков. Опыт международных организаций (МВФ, Всемирный банк, ОЭСР) и реформы государственной финансовой политики Узбекистана подвергнуты сравнительному анализу. По результатам исследования установлено, что цифровизация является ключевым фактором обеспечения прозрачности и доверия в фискальном управлении, расширения общественного участия и повышения эффективности государственных расходов.

Ключевые слова: Государственный бюджет, цифровизация, фискальная дисциплина, прозрачность, финансовое управление, открытые данные, бюджет для граждан, FMIS, аудит, коррупционные риски, подотчётность, экономическая устойчивость, международный опыт, Всемирный банк, МВФ, Узбекистан, электронное правительство, бюджетный контроль.

KIRISH

O'zbekiston davlat moliyasini boshqarish tizimida raqamlashtirish jarayonlari so'nggi yillarda moliyaviy intizomni mustahkamlash va shaffoflikni oshirish yo'lida muhim bosqichni tashkil etmoqda. Raqamli

texnologiyalar joriy etilishi davlat budjeti ijrosini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Raqamlashtirish orqali budjet daromadlari va xarajatlari ustidan real vaqt rejimida monitoring yuritish imkoniyati yaratilmoqda, bu esa fiskal intizomni kuchaytirish, korrupsiya xavfini kamaytirish va davlat mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan, davlat budjeti ijrosini raqamlashtirish O'zbekistonning fiskal siyosatini takomillashtirish, budjet shaffofligini oshirish hamda xalqaro moliyaviy boshqaruv standartlariga moslashuv yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi.

Fiskal intizom tushunchasi davlatning budjet siyosatini qat'iy qoidalarga asoslanib yuritishi, davlat qarzining barqaror darajada saqlanishi, budjet defitsiti ustidan nazoratning kuchaytirilishini anglatadi. Budjet ijrosida intizomning mavjudligi davlatning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va sarmoyadorlar ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. OECD ekspertlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ta'kidlanishicha, fiskal qoidalar samarali ishlashi uchun budjet jarayonlarining shaffofligi hal qiluvchi omil hisoblanadi [5]. Shaffoflik esa davlat moliyasi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq, ishonchli va o'z vaqtida jamoatchilikka yetkazilishini anglatadi. Xalqaro moliya institutlari — xususan, Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan O'zbekistonda fiskal shaffoflik sohasida amalga oshirilgan islohotlar yuqori baholangan. IMFning 2019-yilgi "Republic of Uzbekistan: Fiscal Transparency Evaluation" hisobotida qayd etilishicha, mamlakatda budjet axborotlari qamrovi, ishonchliligi, sifati va ochiqqligi sezilarli darajada yaxshilangan [1]. Bu natijalar, shubhasiz, raqamlashtirish jarayonlarining samarasi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston hukumati tomonidan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Davlat moliyasini boshqarishni modernizatsiya qilish strategiyasi", "Ochib berilgan ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar va "Fuqarolar budjeti" tashabbusi doirasida qabul qilingan chora-tadbirlar fiskal boshqaruvda ochiqlik va hisobdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Jahon banki ekspertlari fikricha, budjet jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, masalan, onlayn portal orqali mahalliy loyihalarni tanlash amaliyoti fuqarolarni davlat moliyasi ustidan bevosita nazorat mexanizmi bilan ta'minlaydi [2]. Shu bilan birga, O'zbekistonda budjet ma'lumotlari "Open Budget" portali orqali keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etilmoqda, bu esa davlat xarajatlarining samaradorligi va qonuniyligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamlashtirish jarayonining fiskal intizomga ta'siri bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, budjet jarayonlarini avtomatlashtirish inson omili ta'sirini kamaytiradi, bu esa budjet ijrosida intizomni ta'minlash, noto'g'ri yoki soxta xarajatlarning oldini olish imkonini beradi. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan moliyaviy boshqaruv axborot tizimlari (FMIS) orqali har bir tranzaksiya real vaqt rejimida kuzatilib, natijada budjet defitsiti va qarz ko'rsatkichlari tezkor aniqlanadi. Uchinchidan, raqamlashtirish davlat organlarining hisobotlilik madaniyatini shakllantiradi, chunki har bir bo'limning moliyaviy faoliyati markazlashtirilgan tizimda qayd etiladi. Cangiano va boshqalarning [3] tadqiqotida qayd etilishicha, raqamlashtirish "asosiy PFM (Public Financial Management) funksiyalarini mustahkamlaydi, to'lovlar va hisob-kitoblarni tezlashtiradi, shuningdek, buxgalteriya va hisobot sifatini yaxshilaydi". Bu jarayonlar O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Budjet ijrosining shaffofligi esa davlat moliyasida ishonch va hisobdorlik tamoyillarini mustahkamlaydi. R. Ferreira va J. Guerrero tomonidan tayyorlangan "Guide on Advancing Fiscal Transparency for Development" qo'llanmasida shaffoflikning beshta asosiy tamoyili — "ochiqlik, ishonchlilik, to'liqlik, o'z vaqtida taqdim etish va tushunarli bo'lish" ko'rsatib o'tilgan [4]. O'zbekistonda bu tamoyillar bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilinmoqda. Masalan, "Fuqarolar budjeti" orqali budjet ma'lumotlari sodda va tushunarli tilda ommaga yetkazilmoqda, bu esa xalqning moliyaviy savodxonligini oshirish bilan birga, shaffoflikning amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Quyidagi 1-jadval O'zbekistonda budjet ijrosi raqamlashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni umumlashtiradi:

1-jadval. O'zbekistonda davlat budjeti ijrosini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari va ularning fiskal intizom hamda shaffoflikka ta'siri

Yo'nalish	Mazmuni
Elektron davlat xizmatlari	Davlat moliyaviy boshqaruv sohasida elektron hujjatlar aylanishi va AKT integratsiyasi joriy etilmoqda [7].
Hisobot va ma'lumotlar taqdimoti	Budjet ma'lumotlarining keng jamoatchilik uchun ochiqqligi oshmoqda, "Fuqarolar budjeti" amaliyoti yo'lga qo'yilgan [2].
Audit va nazorat tizimlari	O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va boshqa nazorat organlari raqamli monitoring tizimlariga o'tmoqda [9].
Institutsional bazani mustahkamlash	"Davlat moliyasini boshqarishni modernizatsiya qilish strategiyasi" qabul qilingan [8].
Jamoatchilik ishtiroki	"Open Budget" portali orqali fuqarolar mahalliy tashabbuslarni moliyalashtirish uchun ovoz berish imkoniyatiga ega [2].



Raqamlashtirishning amaliy natijalari shundan iboratki, davlat budjeti jarayonlarida ochiqlik, tezkorlik va aniqlik oshmoqda. Bu esa fiskal intizomni ta'minlashda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlat xarajatlarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash va samaradorlik indikatorlarini aniqlash imkoniyati kengaymoqda.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonida bir qator cheklovlar ham mavjud. Avvalo, texnik infratuzilmaning ayrim hududlarda to'liq shakllanmagani, kadrlarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi, shuningdek, ma'lumotlar bazalari o'rtasida integratsiyaning to'liq ta'minlanmagani jarayonni sekinlashtirmoqda. C. Long va hamkorlari [6] "Digital Public Financial Management: an Emerging Paradigm" asarida ta'kidlaganidek, ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda raqamli tizimlar joriy etilgan bo'lsa-da, ular o'zaro integratsiya darajasi pastligi sababli kutilgan samarani bermayapti. O'zbekistonda ham bu muammo sezilmoqda. Shu bois, moliyaviy axborot tizimlarini yagona integratsion platformaga birlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Yana bir muhim jihat — off-budget (budjetdan tashqari) xarajatlarning qisqartirilishi. Jahon banki mutaxassislari [2] O'zbekistonda 2018-yilga qadar ayrim xarajatlarda budjetdan tashqarida amalga oshirilganini, bu esa fiskal intizomni zaiflashtirganini qayd etgan. Bugungi kunda bu amaliyotni butunlay yo'qotish, barcha moliyaviy operatsiyalarni yagona elektron tizim orqali yuritish zarur.

Hisob palatasi faoliyatining raqamlashtirilishi ham budjet intizomini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. I. Tohirova [9] o'z tadqiqotida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan elektron audit tizimlarining joriy etilishi natijasida budjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazorat samaradorligi oshganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, T. M. Ugli [10] iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri sifatida davlat xarajatlarini raqamli tahlil asosida optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamlashtirishning shaffoflikka ta'siri haqida gapirganda, jamoatchilik nazoratining kuchayishini alohida ta'kidlash lozim. Ma'lumotlar real vaqt rejimida ochiq manbalarda joylashtirilishi fuqarolarga davlat xarajatlari ustidan bevosita kuzatuv olib borish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, korrupsiyaviy xavflarni kamaytiradi, fuqarolar ishonchini oshiradi va davlatning hisobdorligini kuchaytiradi. Raqamli budjet tizimlari orqali xalqaro audit talablari va BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) bilan uyg'unlik ham ta'minlanadi.

Biroq raqamlashtirishning muvaffaqiyati faqat texnik yechimlarda emas, balki institutsional islohotlar, qonunchilik bazasining mustahkamligi va inson kapitalining rivojlanishiga bog'liqdir. Shu bois, O'zbekiston tajribasida quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi maqsadga muvofiq: birinchidan, raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini yagona integratsion platforma asosida yaratish; ikkinchidan, fuqarolar uchun budjet ma'lumotlarini interaktiv shaklda taqdim etish; uchinchidan, audit va nazorat organlarini raqamli texnologiyalar bilan jihozlash; to'rtinchidan, ma'lumot xavfsizligini ta'minlash orqali davlat axborot tizimlariga ishonchni oshirish; beshinchidan, har yili fiskal shaffoflik darajasini xalqaro metodologiyalar asosida baholab borish.

Natijada, raqamlashtirish fiskal intizomni mustahkamlash, shaffoflikni oshirish, davlat boshqaruvi samaradorligini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. B. Gootjes [5] tomonidan bildirilganidek, "fiskal qoidalar faqat shaffoflik mavjud bo'lgan taqdirdagina samarali ishlaydi". O'zbekistonda raqamli islohotlar aynan shu bog'liqlikni amalda namoyon etmoqda: shaffoflik ortgani sari intizom, intizom kuchaygani sari davlat moliyasiga ishonch mustahkamlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston davlat budjeti ijrosini raqamlashtirish davlat boshqaruvining zamonaviy paradigmasiga mos ravishda moliyaviy boshqaruvni sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqmoqda. Bu jarayon davlat moliyasida ochiqlikni, intizomni va samaradorlikni ta'minlash orqali fiskal siyosatning barqarorligini mustahkamlamoqda. Kelgusida raqamlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, ma'lumot tizimlarini integratsiya qilish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish O'zbekistonning fiskal boshqaruvini xalqaro eng yaxshi tajribalar darajasiga ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Monetary Fund, "Republic of Uzbekistan: Fiscal Transparency Evaluation", IMF Staff Country Reports, 2019.
2. I. Izvorski, "Improving Uzbekistan's public finances: More transparency, better budgeting, and lower taxes", *World Bank Blog*, 2020.
3. M. Cangiano, P. Curristine, and M. Lazare, "Public Financial Management and Digitalization of Payments", *CGD Working Paper*, 2019.
4. R. Ferreira and J. P. Guerrero, "Guide on Advancing Fiscal Transparency for Development", *Global Initiative on Fiscal Transparency*, 2022.
5. B. Gootjes, "Do fiscal rules need budget transparency to be effective?", *Journal of Comparative Economics*, vol. 50, 2022.
6. C. Long et al., "Digital Public Financial Management: An Emerging Paradigm", *ODI Working Paper*, 2023.
7. MB. Habibullo o'g'li, "The Importance of Digital Technologies in Improving the Efficiency of Public Finance", *CAJITMF Journal*, 2025.



8. A. Sharoxmatov, "Mechanisms for Ensuring the Balance of State Budget Revenues and Expenditures", *Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship*, vol. 1, no. 6, 2025.
9. I. G. Tohirova, "The Role and Significance of the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan in Ensuring Fiscal Discipline", *IJMEF Journal*, 2025.
10. T. M. M. Ugli, "Ways to Ensuring Economic Stability Based on Increasing Efficiency of Budget Execution", *European Science Review*, 2025. C. Long et al., "Digital public financial management: an emerging paradigm", ODI Working Paper, 2023.
11. MB. Habibullo o'g'li, "The Importance of Digital Technologies in Improving The ...", CAJITMF, 2025.
12. A. Sharoxmatov, "Mechanisms for ensuring the balance of state budget revenues and expenditures", *Modern American Journal of Business, Economics, and Entrepreneurship*, vol. 1, no. 6, 2025.
13. IG. TohiroVna, "The Role and Significance of The Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan", *IJMEF*, 2025.
14. T. M. M. Ugli, "Ways to Ensuring Economic Stability Based on Increasing ...", *European Science Review*, no. 3–4, 2025.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100